

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA ESTETIK TARBIYANI
SINGDIRISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARINING
AHAMIYATI**

Termiz davlat pedagogika instituti

Temirova Matluba Karim qizi

temirovamatluba95@gmail.com

[Tel:+998996791736](tel:+998996791736)

Annotatsiya: Estetik tarbiya inson shaxsini har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu tarbiya jarayonining boshlang‘ich sinf bosqichida samarali olib borilishi kelajak avlodning dunyoqarashi, go‘zallikni anglash, his etish va estetik zavq olish qobiliyatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga estetik tarbiyani singdirishda Sharq mutafakkirlarining asarlari, ularning g‘oya va qarashlari qanday o‘rin tutishi chuqur tahlil etiladi. Sharq mutafakkirlari, xususan Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumi, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino kabi allomalar o‘z asarlarida nafaqat axloqiy, balki estetik qadriyatlarni ham ilgari surganlar. Ularning asarlarida go‘zallik, nafosat, ma’naviyat, tabiatga, san’atga va inson qalbiga bo‘lgan chuqur munosabat aks etgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, estetik tarbiya, Sharq mutafakkirlari, Alisher Navoiy, ma’naviy tarbiya, axloqiy qadriyatlar, didaktik yondashuv, go‘zallik, o‘quvchi shaxsini shakllantirish.

Ushbu asarlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun moslashtirilgan shaklda taqdim etilsa, ular orqali bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantirish, ma’naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish imkoniyati yuzaga keladi. Maqolada ana shu mutafakkirlarning asarlari orqali estetik tarbiya berishning metodik yondashuvlari, dars jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlari, o‘qituvchilarning bu boradagi roli va didaktik vositalardan foydalanish masalalari yoritiladi. Shuningdek, tajribali pedagoglar fikrlariga tayanilgan holda estetik tarbiyani kuchaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham beriladi. Natijada, bu jarayon o‘quvchilarda nafaqat go‘zallikka, balki milliy merosga hurmat, insoniy fazilatlarga sadoqat kabi xislatlarni ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Amir Temur umr bo‘yi obodonchilik ishlari bilan band bo‘lgan. Qadami yetgan joylarda bog‘-bo‘stonlar, qal’a qasrlar, yo‘llar, go‘zal go‘shalar barpo etgan. Temurning dilida go‘zallik va bunyodkorlikka, ilm-fan, ma’daniyat-ma’rifatga, mehr-

muxabbat kuchli bo‘lgan. Bunga uning davrida yaratgan san‘at va me‘moriy obidalar dalildir. Bunga Jahongirning “Qay bir joydan bir g‘isht olsam, o‘rniga o‘n g‘isht qo‘ydirdim, bir daraxt kestirsam, o‘rniga o‘nta ko‘chat ektirdim”,- degan so‘zlardalidir.

“Kimki biron sahroni obod qilsa, yoki qursa yo biron bog‘ ko‘kartirsa, yohudi biron xarob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yil undan xech narsa olmaganlar”,- deb o‘qitiradi. Bu esa soxibqironning obodonchilik ishlarini rivojlantirishiga qaratilgan o‘tkir siyosatidan darak beradi. Albata, og‘ir va sababli ishni amalga oshirgan inson o‘zining mashaqatli mehnati evaziga muayyan moddiy va ma‘naviy rag‘batga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyojning qondirilishi esa, uning qilgan mehnatiga jamiyat tomonidan bildirilgan minnatdorchilik kabi qabul qilinadi.

Millatimizni dunyoga mashhur qilgan adabiy va ilmiy meroslar sirasiga “Avesto”, Imom al-Buxoriyning “Al-jome‘ as-sahih”, Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, Beruniyning “Osor al-Baqiya”, Ibn Sinoning “Tib qonunlari”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari, Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk”, Amir Temurning “Temur to‘zuklari”, Alisher Navoiyning “Hamsa”, “Lisonut tayr”, “Mahbub-ul-qulub”, Boburning “Boburnoma”, Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” kabi noyob asarlarini kiritish mumkin.

Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan odob - o‘gitlar, pand - nasixatnomalar, diniy-falsafiy kitoblarda vatanga e‘tiqod qilishga keng o‘rin berilgan. Keyingi yillarda yurtimizda bo‘layotgan o‘zgarishlar tufayli bu manbalarni o‘rganishga va ta‘lim - tarbiya jarayoniga tatbiq etishga e‘tibor kuchaydi. Ayniqsa, asrlarga tengdosh yozma bitiklar va xalq og‘zaki ijodida, ya‘ni afsonalar, ertaklar, rivoyatlar, maqollarda yuksak insoniy tuyg‘ular ulug‘lanadi. Bu manbalarning yosh avlodni vatanga e‘tiqod va go‘zalikka oshna ruhida tarbiyalashda ahamiyati nihoyatda kattadir.

O‘quvchi yoshlarda estetik tarbiyani takomillashtirish davomida uning milliy tarixiy asoslarini o‘rganib chiqar ekanmiz, eng avvalo, “Avesto”ning asrlar davomida insonlarni poklik, ilm egallash, mehnatsevarlik, tabiatni asrash kabi insonparvarlik g‘oyalariga da‘vat etib kelganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu bitikda vatanni sevish, o‘zlari yashab turgan zaminni asrab-avaylash, unga e‘tiborli bo‘lish, vatanga e‘tiqod haqidagi g‘oyalar ham mavjudki, shubhasiz, bu g‘oyalar kichik yoshdagi o‘quvchilarda vatanga e‘tiqodni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. “Avesto”da ona zamin, oila, vatan tushunchalari muqaddas sanalgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, bu yozma bitikda inson oila bo‘lib yashashi, farzandlar tarbiyalab voyaga yetkazish kabi oila an‘analarini davom ettirish g‘oyalari ilgari suriladi. Demak, “Avesto”da oila muqaddas sanalgan, oila esa vatan demakdir, vatandagina insonlar baxtiyor yashaydilar. “Avesto”ning bugungi davrimiz uchun

qadriyat hisoblanishining boisi ham undagi g‘oyalarning insonparvarligidadir, shu jumladan, kichik yoshdagi o‘quvchilarda vatanga, uning go‘zal go‘shalariga e‘tiqodni tarbiyalovchi manbalardan biri hamdir.

Shubhasiz, ushbu intilishlarni paydo qiluvchi omil sifatida mutafakkirlarning asarlari katta ahamiyatga ega. Jumladan, o‘sha davrlarda yashab, kamol topgan mutafakkir shoir Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida kishilarni ilm-fan, go‘zallik ya’ni nafosat tarbiyasi haqida to‘xtaladi. Nafosat tarbiyasini takomillashtirishda shaxs tarbiyasi alohida o‘rin tutganligi bois, tadqiqotchilar mazkur masala bilan muntazam shug‘ullanib keldilar. Barkamol avlodda estetik tarbiyani shakllantirishda uning ma’naviyati muhim ahamiyatga molikdir.

Ma’naviyatli inson deganda, tadqiqotchi M.Pazilova uning mehnatsevarligini ham alohida e‘tirof etadi. Inson o‘z mehnati orqali xalqiga hurmat qilishi lozimligini uqtiradi. Insonning insonparvarlik fazilati o‘zini o‘z xalqiga farzandi sifatida his etish, uni deb mehnat qilishi, uning fidoyisi bo‘lishi bilan belgilanadi, deya insonning ma’naviyat darajasini ko‘rsatib beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida estetik tarbiyani shakllantirishda iqtisodiy tarbiya ham muhim ahamiyat kasb etadi. Unda maktab o‘quvchilarida estetik tarbiyani shakllantirish orqali tabiatdan inom etilgan aqliy sezgilar, ruhiy holatlar ya’ni insonning mustaqil fikr yuritishi, kelajak haqida qayg‘urishi va uning jamiyatda faol a‘zosiga aylanishida oldiga maqsad qo‘ya olish hamda ko‘zlangan maqsadga yetishish qobiliyatini shakllantirish mumkinligi B.Sobirovning tadqiqot ishida o‘z tavsifini topgan.

S.Nishonova tomonidan barkamol inson shaxsini shakllantirish, xususan, estetik tarbiyani shakllantirishda buyuk Sharq allomalarining ilmiy va ijodiy merosidan foydalanish masalalari tadqiq qilingan bo‘lib, “ta’lim-tarbiya jarayonida ta’limiy-axloqiy asarlardan foydalanish, komil insonni tarbiyalashda zamin yaratadi. Unda estetik tarbiya mohiyati, estetik madaniyat, estetik ong va tuyg‘u, estetik did, badiiy tasavvur, e‘tiqod, axloqiy tarbiya, xulq-odob qoidalari va uni tarkib toptirish va shakllantirishga oid Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Beruniy, Husayn Voiz Koshifiyning qarashlari misolida tahlil etish” ning muhim pedagogik ahamiyati ta’kidlangan

ADABIYOTLAR

1. Qizi, T. M. K. (2022, November). BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARNI ESTETIK QARASHLARINI O‘STIRISHDA TABIATNING O‘RNI. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 1, No. 2, pp. 27-34).

2. Rustam Sayfiddinovich Xurramov, Javohir Gaybullo Ogli Zokirov, & Matluba Karim Qizi Temirova (2021). ETHNOPEDEGOGICAL FUNDAMENTALS OF DEVELOPING INTEREST IN NATURAL AESTHETICS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Scientific progress*, 2 (7), 832-839.
3. Zokirov, J., & Matluba, T. (2022). ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O 'RGANISHDA MATN USTIDA ISHLASH USULLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(4), 218-223.
4. XX, P. M. (2022). The Importance of Developing the Spiritual Thinking and Capacity of Primary School Students. *Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science*, 1(2), 6-12.
5. Qizi, T. M. K. (2022, November). BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARINI ESTETIK QARASHLARINI SHAKLLANTIRISH. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 1, No. 2, pp. 26-31).
6. Boymatovna, M. M. T. (2023). O'QUVCHILARNING ESTETIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING AHAMIYATI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(1), 30-33.10.
7. Qizi, T. M. K. (2023). ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(1), 56-60.
8. Temirova Matluba Karim Qizi. (2022). 1-4-SINFDA ESTETIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities*, 1(2), 179–185.
9. Temirova Matluba Karim Qizi.. Boshlang'ich sinfi o'quvchilarini estetik tarbiyalashning mavjud holati. (2025). *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 3(4).